



MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VODIYSINING IJTIMOIIY- IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOTI TARIXI

Normurodov Shaxzod Sharof o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi I-bosqich 23/4-guruh talabasi

Yusufov Og'abek Umar o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi II-bosqich 22/3-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yani mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda bo'lgan o'zgarishlar rivojlanishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada hozirgi vaqtdagi o'zgarishlar haqida adabiyotlar tahlili o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Ungurlar, Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog'ish .

Kirish. Farg'ona viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Shimoldan Namangan, Andijon viloyatlari, janub va sharqdan Qirg'iziston, g'arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming km². Aholisi 2023-yil 1-aprel 3 994 800 kishi. Tarkibida 15 tuman, 4 shahar (Marg'ilon, Farg'ona, Quvasoy, Qo'qon), 10 shaharcha, 164 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2004). Markazi — Farg'ona shahri. Farg'ona viloyati O'zbekistonning qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgohlari va qoyatoshlariga solingan suratlar vodiyyda odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg'ona viloyatining tosh davri yodgorliklarini 1954-yil A. P. Okladnikov rahbarligidagi arxeologiya otryadi o'rgangan. Vodiyning sharqiy qismidagi Qayroqqum, Xo'jag'or va Uchqo'rg'on makonlaridan mustye davriga oid tosh qurollar topildi. Vodiyning g'arbiy qismidagi qadimgi tosh davri madaniyatiga oid manzilgohlar mustye davridagi Qal'acha, Jarqo'ton va Qapchig'ay tosh qurollar ishlash ustaxonalari topilib o'rganildi. 1958-yil birinchi marta Markaziy Farg'onadan mezolit davriga oid mikrolit tosh qurollari topildi. Shuningdek, Markaziy Farg'onadagi Uzunko'l va



Tayloqko‘l atroflaridan mezolit va neolit davrlariga oid 24 ta manzilgoh borligi aniqlandi (1965). So‘x vohasidagi 28 g‘or va ungurlar (Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog‘ishim va boshqalar) ro‘yxatga olindi. Obishir g‘orlaridagi madaniy qatlam yaxshi saqlangan. G‘orlarni qazish jarayonida mezolit davriga oid tosh qurollar, xayvon suyaklari topilgan. Bular o‘sha davr turmushini o‘rganish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 1967 va 1969—70 yillarda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi xodimlari mezolit va neolit davrlariga oid 35 ta manzilgoh topdilar. Farg‘ona viloyatining arxeologik yodgorliklarini o‘rganishda Katta Farg‘ona kanalining qazilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Kanalni qazish jarayonida jez davri, quldorlik va zamindorlik jamiyatlariga oid yodgorliklar topildi va tekshirildi. Quva va Toshloq tumanlari o‘rtasidagi Akbarobod qishlog‘ida jez davriga oid manzilgoh, Marg‘ilonsoyning chap sohilida Oqtom qabristoni bo‘lganligi aniqlandi. Farg‘ona viloyatining Quva tumanida quldorlik davriga oid Taxyontepa, Farg‘ona shahrida Simtepa (Chimtepa) kabi yodgorliklar topib o‘rganilgan. Ayniqsa, Quva shahridagi miloddan avvalgi 5-asr va o‘rta asr boshlariga oid topilmalar yaxshi tekshirilgan. 10-11-asrlarga doir tarixiy manbalarda bu shahar obodligi va kattaligi jihatidan vodiya Axsikatdan so‘ng eng yirik shahar deb qayd qilingan. Arxeologik materiallar Marg‘ilon shahri 10-asrda katta qishloq bo‘lib, 11-12-asrlarda shaharga aylanganligini, Rishton esa 10-asrda katta shahar bo‘lsa ham, 11-12 asrlarga kelib qishloq qiyofasiga kirib qolganligini isbotlaydi.

O‘troq dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullangan Chust madaniyatiga oid manzilgohlardan topilgan yodgorliklar Farg‘ona vodiysini o‘rganishda muhimdir. U yerda ishlab chiqarish kuchlari va xo‘jalikning taraqqiyoti jez davrining oxirida dehqonchilik qabilalarining ijtimoiy tuzumida o‘zgarish yuz berishiga, natijada ibtidoiy tartiblar tugab, jamiyatdagi tabaqalanishga olib kelgan. Ro‘zg‘or anjomlarida xususiy mulkchilik kurtaklari ko‘zga tashlanadi. Arxeologik tekshirishlar natijasi Farg‘ona viloyatida qadimdan odamlar yashab, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanganligidan, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida esa madaniyat rivojlana boshlaganligidan dalolat beradi.

Natijalar va muhokama. Tabiati Farg‘ona viloyatining shimoliy qismini Qoraqalpoq va Yozyovon dashtlari egallagan, janubdan Olay tizmasidan oqib tushadigan daryolarning yoyilmalari bilan o‘ralgan. Janubda adirlar Olay tizmasining tog‘ oldilari bilan almashinib turadi. Farg‘ona viloyati yuqori seysmik zona hisoblanadi. Iqlimi kontinental. Qishi birmuncha yumshoq, ba‘zan havo juda



sovib ketadi. Yanvar oyining o'rtacha harorati — 3,2 °C, iyulniki 28 °C. Eng past harorat —27,9 °C. Eng yuqori harorat 42 °C. Vodiyning g'arbida esadigan kuchli "Qo'qon shamoli" iqlimga salbiy ta'sir etadi. Shamolning tezligi sekundiga ba'zan 35-40 metrga yetadi. Janubi-sharqida yozda garmsel esadi. Yiliga g'arbida 100 mm dan (Qo'qon atrofi) sharqiy qismida 170 mm gacha, tog' yon bag'irlarida 270 mm gacha yog'in tushadi, asosan, bahorda yog'adi. Vegetatsiya davri 210—240 kun. Viloyatning shimoli-g'arbiy chegarasi bo'ylab Sirdaryo oqadi. Olay tizmasidan Isfara, So'x, Shohimardon, Isfayramsoy boshlanadi. Daryolar muzlikqor suvlaridan to'yinadi. Iyul— avgustda to'lib oqadi. Daryo suvlari sug'orishga sarflanadi. Asosan, bo'z tuproq va o'tloqi botqoq tuproklar keng tarqalgan. Adirlarda aksari och va tipik bo'z tuproqlar, Sirdaryo terrasalarida allyuvialo'tloqi tuproqlar, viloyatning shimoliy qismida sho'rxok o'tloqlar va ajriqli o'tloqlar mavjud. Markaziy Farg'onadagi sho'rxoklarda turli xil sho'ra o'sadi. Yerlarining kattagina qismi ekinzor. Vohalarda terak, tut, qayrag'och, daryo vodiylarida keng bargli o'rmonlar va archazorlar bor. Yovvoyi hayvonlardan Sirdaryo to'qayzorlarida qobon, adir va Olay tizmasi tog' oldilarida bo'ri, tulki, chiyabo'ri, quyon, bo'rsiq, jayra yashaydi. Ondatra, nutriya iklmlashtirilgan. Qushlar, sudraluvchilar ko'p. Suv havzalarida marinka, usach, zog'ora baliq, karp, oq amur, do'ngpeshona baliqlar bor.

Aholisi. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, qirg'iz, tatar va boshqa millat vakillaridan tashkil topgan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 413,9 kishi. Shahar aholisi 2.2 million kishi, qishloq aholisi 1.7 million kishi.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoklari — paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, bog'dorchilik va chorvachilik. Viloyatdagi barcha ekin maydoni 288,9 ming ga, shu jumladan, 129,6 ming ga yerga don, 115,9 ming ga yerga paxta, shuningdek, texnika ekinlari, 11,7 ming ga yerga sabzavot va poliz ekinlari, 24,1 ming ga yerga ozuqa ekinlari ekiladi. 20,3 ming ga yaylovlar (2004). Haydaladigan yerlarda, asosan, obikor dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Paxta, bug'doy, sholi, makkajo'xori, arpa, kartoshka, sabzavot va poliz maxsulotlari yetishtiriladi. Bog'larda ko'proq o'rik o'stiriladi. Anor, anjir, olma, xurmo ko'p. Tokzorlarda yuqori navli uzumdan mo'l hosil olinadi. Sug'oriladigan yerlar viloyat hududidan o'tuvchi Katta Farg'ona va Andijon kanallari, Janubiy Farg'ona kanali, Shohimardonsoy, Marg'ilonsoy, So'x, Isfayramsoy, shuningdek, Karkidon, Ko'rg'ontepa suv omborlari yordamida sugoriladi. Viloyatda 8 mingdan ortiq fermer xo'jaligi, 143 shirkat xo'jaligi, 74 xo'jaliklararo korxonalar, 6 parrandachilik fabrikasi mavjud. Chorvachilikda qoramol, qo'y va echki, parranda boqiladi. Viloyat jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida



511,9 ming qoramol (shu jumladan, 213,2 ming sigir), 431 ming qo‘y va echki, 1260,9 ming parranda bor.

Madaniyati. Viloyatda 4 oliy o‘quv yurti bo‘lib, 18,9 mingdan ortiq talaba, 910 umumiy ta‘lim maktabi (690 mingga yaqin o‘quvchi), 8 gimnaziya (7,3 ming o‘quvchi), 47 litsey (16,3 ming o‘quvchi), musiqa va sport maktablari ishlab turibdi. Xalq ta‘limi sohasida chet el investorlari bilan aloqa bog‘lanib „Mersi KO“ jamgarmasi, Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya grantlar dasturi asosida kompyuter va boshqa jihozlar olindi. Viloyat sportchi o‘quvchilari 2003—04 yillardagi „Umid nihollari“ sport musobaqalarida 2 va 3 o‘rinlarni egalladilar. Farg‘ona viloyatida 77 kasbhunar kolleji, 3 akademik litsey faoliyat ko‘rsatadi shuningdek 4 teatr, madaniyat uylari, 3 muzey, 193 klub muassasasi, 609 ommaviy kutubxona (603,6 ming nusxa asar) aholiga xizmat ko‘rsatadi. Viloyatda 1998-yilda Farg‘oniyning 1200 yillik, 2000-yilda Burhoniddin Marg‘inoniyning 910 yillik yubileylari o‘tkazildi.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Farg‘ona viloyati o‘ziga hos madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy eng asosiysi o‘z tarixiga ega viloyat hisoblanadi hozirgi vaqtda olib borilayotga o‘zgarishlar yani tarixiy obidalarni rekanstruksiya qilish aholi turmush tarzini yaxshilash jahon standartlariga javob beradigan yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nalivkin V. P., Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva, Kazan, 1886; Akromov 3. M., Farg‘ona vodiysi, T., 1957.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.03.1999 -yildagi 10-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Farg‘ona viloyatida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida” 05.03.1999 y.
4. Farg‘ona viloyati qishloq joylarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish: moliyalashtirish va boshqarish tizimi. USAID/ZdravReform dasturi O‘zbekistonda. – Toshkent: 2000.
5. Farg‘ona shifokori. // 1999 yil, 14-iyun.